



2022-yil 24-fevral

Zarkent qo'rg'oni

PRESS-RELIZ

2022-yil 24-fevral kuni “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Janubiy kon boshqarmasi bo‘linmalarida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida, Navoiy va Samarqand viloyatlari ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlari uchun press-tur va matbuot anjumani o‘tkazildi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining o‘rni va salmog‘i katta. Keyingi yillarda kombinatda yirik investitsion loyihalar amalga oshirilayapti. Bu loyihalar doirasida 2021-yilda **7-gidrometallurgiya zavodi** foydalanishga topshirilganligi, 2-gidrometallurgiya zavodida yiliga **12 mln tonna** ma‘danni qayta ishlaydigan **“B” korpusi** ishga tushirilganligi qayd etildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **13 foizdan** ortiqni tashkil etishi, davlat byudjetiga jami tushumlarining ulushi esa **20 foizga** yaqinligi, 2021-yilda kombinat jahondagi oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar reytingida **5-o‘rinni** egallaganligi ta’kidlab o‘tildi.

OAV vakillari “NKMK” AJning Qo‘shrabot tumanining Zarkent qo‘rg‘onida joylashgan **4-gidrometallurgiya zavodi**, **“Zarmitan”** va **“G‘ujumsoy” konlarida** bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonlari va amalga oshirilayotgan loyihalar bilan yaqindan tanishdilar hamda ishchi-xodimlar bilan suhbatlashdilar.

Bugungi kunda 6 ming nafarga yaqin ishchi-xodimlar mehnat qilayotgan Janubiy kon boshqarmasi kombinatning yirik bo‘linmalaridan biridir. Boshqarmaning **“Zarmitan”** yerosti konining yillik ma‘dan qazib olish quvvati **850 ming tonnani** tashkil etadi. Konda tarkibida oltin bo‘lgan kvars-sulfidli ma‘dan qazib olinadi. Bugungi kunda yer ostidan ma‘dan qazib olishda **“Epiroc”**, **“Sandvik”**, **“Paus”**, **“Miner”** kabi xorij kompaniyalarining eng zamonaviy texnikalari – yerosti o‘ziyurar yuklash va tashish mashinalari, shaxta avtoag‘dargichlari, burg‘ilash qurilmalari va boshqa asbob-uskunalardan keng foydalanilmoqda.

2021-yil avgust oyida **“Zarmitan”** konining **“Asosiy”** stvoli maydonida qurilgan shaxta ko‘tarish qurilmasi binosi va stvol kopyori ishga tushirildi. Natijada, **“Asosiy”** stvol gorizontlariga ishchi-xodimlar, yuklarni tushirish-ko‘tarish va qazib olingan ma‘danni yuqoriga tashish uchun qulayliklar yaratildi. Shu davrgacha ishlatilib kelingan shaxta ko‘tarish eski qurilmasi yer ustki sathidan **300 metr** chuqurlikgacha tushardi. Endilikda **930 metr** chuqurlikgacha tushish va yer quyi sathlaridagi zaxiralarni yuqoriga – yer ustki qismiga olib chiqish imkonini beradi.

“G‘ujumsoy” konida tarkibida oltin bo‘lgan kvars-sulfidli ma‘dan qazib olinadi. 2018-yilda konda chuqurligi **500 metr**, aylanasi **6 metr** bo‘lgan yangi shaxta ishga tushirildi. Shaxta ishga tushirilishi natijasida **“G‘ujumsoy”** konining loyiha quvvati **750 ming tonnaga** yetdi. 2021-yilda konda maydalash-saralash texnologik tizim va ko‘chma to‘ldirish qurilmasi foydalanishga topshirildi. Ushbu ob‘yekt **“G‘ujumsoy”**

konining ishlab chiqarish quvvatini oshirishga qaratilgan investitsion loyihasi asosida barpo etilgan bo‘lib, kon hududlarida sodir bo‘layotgan yer sathining cho‘kishlarini oldini olish va texnika xavfsizligi ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

2010-yil 30-avgustda Zarkent qo‘rg‘onida ishga tushirilgan 4-gidrometallurgiya zavodi mamlakatimiz mustaqillik yillarida kombinat tomonidan barpo etilgan ikkinchi yirik sanoat majmuasidir. 2010-2021-yillarda 4-GMZning tarkibida oltin bo‘lgan ma‘danni qayta ishlash unumdorligi yiliga **1,8 mln tonnadan 2 mln tonnagacha** oshirildi, oltinni ajratib olish ko‘rsatgichi esa **92,2 foizni** tashkil etdi. O‘tgan vaqt mobaynida korxonada “Zarmitan” va “G‘ujumsoy” konlaridan qazib olingan **20 mln tonnadan** ortiq ma‘dan qayta ishlandi.

Geologik tadqiqotlarga ko‘ra, Zarmitan oltin konlarining zaxiralari zavodning **2070-yilga** qadar bir maromda ishlashiga yetadi. Hozirgi vaqtda **500 nafardan** ziyod ishchi-xodimlar faoliyat ko‘rsatayotgan zavodda eng zamonaviy asbob-uskunalar va texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Eng muhimi, bugungi kunda zavod va konlarni mahalliy kadrlar boshqarmoqda. Erishilayotgan barcha yutuqlarda ularning hissalarini katta bo‘lmoqda. Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga Janubiy kon boshqarmasi, konlar va zavod rahbar va mutaxassislar tomonidan atroflicha javoblar berildi.

MA’LUMOT UCHUN:

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati jahonda oltin ishlab chiqaruvchi peshqadam kompaniyalar o‘ntaligiga kirib, yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo‘lgan to‘liq ishlab chiqarish jarayonini o‘zlashtirgan yirik sanoat klasteri hisoblanadi. Kombinatning “999,9” soflikdagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo‘yicha birjalarida O‘zbekistonning brendiga aylandi!

Murojaat uchun ma’lumotlar:

“NKMK” AJ matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-59

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

<https://t.me/ngmkofficial>, www.fb.com/ngmkofficial, [instagram.com/ngmk.official](https://www.instagram.com/ngmk.official)